USMON AZIM SHE'RIYATINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ismoilova Marjona Akmaljon qizi
Andijon davlat universiteti Kompyuter lingvistikasi mutaxasisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola shoir Usmon Azim lirikasining lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan. Tematik

Kirish. Zamonaviy o'zbek adabiyoti mustaqillikdan keyingi davr — XXI asr o'zbek adabiy jarayonining faol, rang-barang va dinamik bosqichidir. Bu davr adabiyoti ijtimoiy-siyosiy erkinlik, madaniy yangilanish, axloqiy-ruhiy izlanishlar va adabiy shakl hamda uslubllarning modernizatsiyasi bilan xarakterlanadi. Sovet davri mafkuraviy cheklovlaridan xoli bo'lgan zamonaviy adabiyot badiiy tafakkur erkinligini, muallif individualligini, jamiyat va inson ongidagi o'zgarishlarni keng yoritib berish imkoniga ega bo'ldi. Natijada, o'zbek adabiyoti janrlar, mavzular, badiiy tajribalar va adabiy maktablar nuqtayi nazaridan sezilarli darajada boyidi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri — inson ruhiy olamining yangicha talqin qilinishi, shaxs psixologiyasi, ichki kechinmalar, yolg'izlik, ma'naviy inqiroz, iztirob va hayotning ma'nosi kabi mavzularga chuqur kirib borilishi bo'ldi. O'zbek zamonaviy she'riyatida o'ziga xos ovozga, o'zining ta'biri bilan aytganda "yangi tasavvuf"ga ega ijodkor Usmon Azim tabiat va unda mavjud yaralmishlarga xos xususiyatlardan ruhiy tashbehlar sifatida foydalanish, hissiy kechinmalar, kayfiyatlardagi evrilishlarni metamorfozalarda aks ettirish bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu maqolada sevimli shoirimiz Usmon Azim ijodini tematik tahlil asosida o'rganish maqsad qilindi. Ya'ni adib she'riyatining leksik-semantik xususiyatlari ochib berildi.

Tahlil asosan quyidagi bosqichlarda olib borildi: Shoir she'rlarida uchraydigan ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olindi va badiiy asarga nima maqsadda olib kirilgani mulohaza qilindi.

Ma'nodosh so'zlar. Ma'lumki, ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini to'liq bajara olishini osonlashtiradi. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Buni yaxshi anglagan Usmon Azim deyarli har bir misrasini sinonimlar marjoni bilan bezaydi.

Bo'zlashing-u mungrashing qalbga ayon
Izlasam sog'inchlarim borsin qayon?

Quyidagi satrlarda shoir badiiy ifoda maqsadiga ko'ra nimjon, so'lg'in, pajmurda so'zlaridan pajmurdani tanlashi ekspressiv ma'noning yanada kuchayishiga xizmat qilgan:

Dunyolar zalvoridan ingrab.
Pajmurda dardlarning faryodini tinglab,
Qazo yetgan kabimungrab,yig'lab-yig'lab

Ma'nodoshlarni yuklamalar bilan birga qo'llash orqali badiiy nutqni ta'kidlash, ifodaning ta'sirchanligini oshirish maqsad qilingan:

Hamma narsa olisda:
Orzu ham, armon ham, sevgi ham,
Mehr ham…
O'zim ham olisdaman.

Usmon Azim mahoratidan yana biri metonimiya usulida ko'chgan so'zlarning bittasi bilan kifoyalanmay, uni ipga tizilgan marvaridday misralarga terib qo'yganidir:

Ajdaholar haqida esa gapirmay,
Devlar, yalmog'izlar, yosumanlar…

Katta iste'dod egasi bo'lgan ijodkorlarning mahorati shundaki, ular tildagi tayyor sinonimlardan foyalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni shunday qo'llaydilarki, bu so'zlar asarda xuddi ma'nodoshlardek idrok etiladi:

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Baraka yog'adi, yog'adi najot!
Qancha tasodifdan hatlab ko'karar—
Beminnat xizmatkor—mehnatkash hayot

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. Usmon Azimning quyidagi misrasida ellipsis hodisa bilan birga ibora qo'llanganini guvohi bo'lamiz:

Masalan, maysani egachi biling,
Daraxtni—birodar…Olam— guliston!

Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonomik munosabatda bo'la oladi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi. Shoirning " Yomon xabar" she'rini olaylik. Unda kishining biror shumxabarni eshitgandagi holati go'yo shunchaki tasvirlanmagan, balki varoqqa chizilganday:

Zil sukunat.
Tog'lar toshlarga cho'kdi.
Daralarda zich havo.
Havo quyilganday.
Nafas tomoqda tirnalar.
Osmon esa boshlarga qulab tushdi.
Bu ko'rgilik
Bir shumxabarning oqibati.
Bir shum xabarning…

Shakldosh so'zlar. Shakldosh so'zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan badiiy asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Usmon Azim ijodida ham omonimlarni uchratishimiz mumkin:Tumanda ming tuman hayrondir holimQay qismat bu tongda menga yetmoqda?

She'rdagi birinchi "tuman" so'zi tabiat hodisa, ikkinchisi esa hisob so'z ekanligini misralarni o'qigan kitobxon darhol payqaydi.

Paronimlar. Paronimlar deb fonetik tarkibi boshqa- boshqa talaffuzdagina o'xshash, yaqin bo'lib qolgan so'zlarga aytiladi. Badiiy adabiyotda paronomaziyadan ifodalilik, ohangdorlikka erishish, so'z o'yini hosil qilish maqsadlarda foydalaniladi.Bu visolning shodligi totlig' edi, dodlig', edi— Ikkimizning umrimiz shu lahzaga tortig' edi

Jumladagi "totlig'", "dodlig'", "tortig'" so'zlarini paronim sifatida olishimiz mumkin.

Zid ma'noli so'zlar. Sevimli shoirimiz Usmon Azim ijodini o'rganish jaroyonida antonimlardan keng qo'llanilganiga guvoh bo'ldik. Bu esa she'r jozibasini oshirish, ifodalilikni, ekspressivlikni, tantanovorlikni o'quvchiga yetkazish uchun ijodkorga qo'l kelgan:

Mardligim bilishar (do'st-u yov ogoh):
Nechun "yur!" deb baxtni qistamaganman,
Baxtni etmaganman ne uchun hamroh?..
Bebaxt bo'lishini istamaganman.

Adib ijodining asosiy qismini kontekstual antonimga asoslangan she'rlar tashkil qiladi. "Esingdami meni sog'inmagan damlaring, hech qachon uchrashmaganimiz esingdami?" deb boshlanuvchi she'ri so'zimizning isbotidir.

Arxaik so'zlar. She'riyatda arxaik so'zlar ko'tarinki kayfiyat ifodalash uchun xizmat qiladi. Ayrim arxaik so'zlar zamonaviy ma'nodoshiga qaraganda kuchliroq ma'no ifodalash xususiyatiga ega:

1. Vujuding o'zgadir, raftoring o'zga
2. Sarosar chopaman. Qaydasan axir?
3. Men edimmi o'sha toshqinli bola, dunyoni ko'tarmoq ishqida vola
4. Men saxiyman. Suv insonga niyoz— unga nisor bo'lmoq matlabi

Birinchi misradagi "raftor"-tashqi ko'rinish; "sarosar"-boshdan oyoq; "vola"-mafun, hayratda; "niyoz"- sovg'a; "nisor bo'lmoq"-fido bo'lmoq ma'nolarini ifodalaydi.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Ko'p ma'noli so'zlar. Shoir Usmon Azimning mahorati shundaki, u ko'p ma'noli so'zlardan ham badiiy ifodalilikni oshirish uchun unumli foydala olgan:

Menga havas bilan qaraydi mardum

Yuqoridagi misrada "mardum" so'zi ko'p ma'noli bo'lib, el, xalq ma'nosi bilan birga ko'zning qorachog'i ma'nosida ham ishlatilinadi.

Yangi so'zlar. So'z ustasi bo'lgan adib Usmon Azim she'rlarida individual nutq neologizmini qo'llaydiki, voqelikni o'ziga xos, betakror, yangicha ifodalashga harakat qiladi: beyo'llik, olatasir, qarso-qursli, lollik, noo'ng'ay, sachranib, sag'irlik, noxos, umumyo'l, titranmoq, xo'shlashgan, mardi zor, nursirab, g'amboda, parkonda, xotirot, yaratg'u, ro'baruh, tushnuksiz, osmonlashmoq, tuproqlashmoq, bebarglik…

Sheva so'zlari. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga, badiiy nutqda muayyan estetik vazifani bajaradi. Surxon elining farzandi Usmon Azim ijodida shu hududga mansub ayrim so'zlarni uchratdik:

1.Bu nola—bobomning loshidir;
2.O'mganini ko'tarolmas, qilt etmas ko'krak;
3.O'grilib qarasam ortimga ilkis;
4.Yugura boshlayman, boshim bulutlarga chuvalar;
5.Mening bilan dunyong sermashib yotar;
6.Shu gapim jo'yali;

Oksyumoron. "O'tkir, ammo be'mani" deb ataluvchi bunday birikmalarni shoir Usmon Azim she'riyatida ko'p duch kelamiz: Mast hayot; go'zal og'riqlar; to'zg'in tabassum; xushyor nochorlik; sodiq shotir; harir g'ussa; jonchiqar faryod; tansiq she'r; navqiron nufuz; to'zg'in harirlik; to'zg'in iqbol, toshqin musavvir, bexush faryod, sovuq qo'rquv…

Ibora. Badiiy asarni obrazli tasvirlashda frazeologik birliklarning o'rni katta:

1.Shuncha aziz boshlar turib, devorning g'amini yegani yegan;
2.Boshimga osmon qulab tushgan, Dunyom esa kunpayakun bo'lgandir;
3.Sabil qolgan jon;
4.Ruhimga qorishdi dardnig bir zardi;

Usmon Azimning "Qo'rquv" she'rida "yetti o'lchab bir kes" maqolining o'zgartirilgan variantini uchratamiz: Ranglar o'chgan.Shivir-shivir.Olazarak qarashlar.Yetti o'lchab,Bir qadam bosilar.So'ng yetmish o'lchab,Qaytilar qadamdan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Usmon Azim lirikasini chuqur o'rganish o'zbek adabiyotida falsafiy lirizmning teranlashuvi, metaforik fikrlashning kuchayishi, erkin poetik shakllarning boyishi jarayonlarini ta'riflashda muhim ahamiyatga ega. Uning she'riyatida inson ruhiyatining eng nozik kechinmalari minimal vositalar bilan, ammo g'oyat kuchli poetik ta'sir bilan ifodalanadi. Shu jihatdan shoir o'zbek she'riyatiga badiiy-estetik yangicha yondashuv olib kirgan, poetik tafakkurini yanada erkin, mushohadaga tayanadigan darajaga ko'targan ijodkor sifatida baholanishi lozim.

Usmon Azim she'riyatida ruhiy kechinmalarni ifodalashning asosiy vositalaridan biri sifatida ichki monolog kengqo'llaniladi. Shoir lirik qahramonning ichki dunyosini ochishda tashqi tasvirdan ko'ra, uning ichki nutqiga, o'z-o'zi bilan muloqotiga ko'proq e'tibor qaratadi. Natijada she'riy matnda subyektivlik kuchayib, o'quvchi bevosita ruhiy jarayonlar ichiga kiradi. Ichki monolog adabiyotshunoslikda qahramonning ichki nutqi, uning ong oqimi, hissiy va fikriy kechinmalarining bevosita ifodasi sifatida talqin qilinadi. Mazkur vosita orqali badiiy matnda tashqi voqelikdan ko'ra, insonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, shubha va izlanishlari markazga chiqadi. Ayniqsa, lirik janrda ichki monolog subyektivlikni kuchaytirib, o'quvchini lirik qahramon ruhiy olamiga yanada yaqinlashtiradi.Usmon Azim she'riyatida ichki monolog nafaqat badiiy vosita, balki muallifning falsafiy qarashlarini ifodalovchi muhim poetik mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Shoir she'rlarida ko'pincha "men" obrazi orqali berilgan ichki nutq insonning o'z-o'zi bilan muloqoti, hayot va borliq haqidagi izlanishlari, ruhiy iztiroblari hamda estetik kechinmalarini ifodalaydi. Bu esa, o'z

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

navbatida, she’riy matnga psixologik chuqurlik va emotsional ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Usmon Azim she’riyatida ruhiy kechinmalarni ifodalashning asosiy vositalaridan biri sifatida ichki monolog kengqo‘llaniladi. Shoir lirik qahramonning ichki dunyosini ochishda tashqi tasvirdan ko‘ra, uning ichki nutqiga, o‘z-o‘zi bilan muloqotiga ko‘proq e’tibor qaratadi. Natijada she’riy matnda subyektivlik kuchayib, o‘quvchi bevosita ruhiy jarayonlar ichiga kiradi. uning she’riyatida chuqur psixologizm va kuchli emotsional ta’sir yuzaga keladi.

Shoir she’rlarida o’zini shamol, quyosh, shabnam, osmon, falakning bir parchasi, ildiz va shunga o’xshash tabiat hodisalariga mengzashi, tuproq, daraxt, maysa, tog’, bog’, sahro, tun-kun, qirlarni o’ziga birodar-u do’st bilishi ifodaning ta’sirchanligi hamda ekspressivligiga xizmat qilgan.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish joizki, shoir she’rlarida ilmiy, publitsistik va so‘zlashuv uslubiga mansub so‘zlar qo‘llanilaveradi. Ammo bu tarzdagi usul she’rlarning badiiyligiga putur yetkazmaydi, balki modern alomatlardan biri hisoblangan sovuqqon intuitsiyaga asoslangan ifoda tarzini yuzaga keltiradi. Shuningdek, shoir she’larining mavzu doirasi, janr-shakl tarkibi, vazn va qofiya tizimi modernistik nuqtayi nazar bilan tahlil etilsa, maqsadga muvofiqdir.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.